



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

BUYRUQ

2021-yil “ 31 ” may _____

№ 201-ij

Samarqand sh.

**Samarqand davlat universitetida
tashkil etilgan inkubatsiya markazi
faoliyatini rivojlantirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-avgustdagi 07/1-1720-sonli topshirig‘i, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-son Qarori hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 27-noyabrdagi 87-03-4981-son xatiga asosan Samarqand davlat universitetida tashkil etilgan inkubatsiya markazi faoliyatini rivojlantirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Samarqand davlat universitetida tashkil etilgan inkubatsiya markazining Nizomi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Samarqand davlat universiteti inkubatsiya markazi o‘z faoliyatini 2-ilovaga muvofiq tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturi asosida olib borilishi ta‘minlansin.
3. SamDU veb-saytida inkubatsiya markazi faoliyatini yoritib berish maqsadida tashkil etilgan veb sahifani takomillashtirish, sahifaga markazda olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida muntazam yangiliklarni joylashtirib borish ta‘minlansin.

Mas‘ul: Universitet matbuot kotibi F.Hamroyev, markaz rahbari F.Nazarov.
Muddat: Doimiy ravishda.

4. Viloyat hamda Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ilmiy-texnik muammolarining yechimiga yo‘naltirilgan ilg‘or va innovatsion ishlanmalar, texnologik loyiha va startaplar bazalari shakllantirilsin. Talabalarning bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari mavzularini ushbu ilmiy muammolariga yo‘naltirilishi ta‘minlansin.

Mas‘ul: O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i B.Aliqulov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, markaz rahbari F.Nazarov hamda xodimlar.

Muddat: Doimiy ravishda.

5. Universitetda startap loyihalarni rivojlantirish, talabalar va yosh olimlarning startap-loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion ishlanmalar yaratish va texnologik loyihalar tayyorlashni tashkillashtirish hamda yoshlarni

moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni tashkil etish maqsadida tanlovlar tashkil etilsin.

Mas'ul: Markaz rahbari F.Nazarov hamda xodimlar.

Muddat: Doimiy ravishda.

6. Tadbirkorlar va ishlab chiqarish vakillari bilan muntazam ravishda seminar-treninglar tashkil etish, ilmiy tadqiqot muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamda boshqa tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish ta'minlansin, hamkorlikda bajarilgan tayyor ishlanmalarni ishlab chiqarish va soha tashkilotlariga taqdim etish ta'minlansin.

Mas'ul: Markaz rahbari F.Nazarov hamda xodimlar.

Muddat: Doimiy ravishda.

7. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor H.Xushvaqtov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: ilmiy-tadqiqot majmuasi boshlig'i **X.Xaydarov** tayyorlagan buyruq loyihasi, katta yuriskonsult **I.Buriyev** roziligi, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **H.Xushvaqtovning** munosabat belgisi.



R.Xalmuradov